

**O'QUVCHILARNI MUSIQIY IJROCHILIK MAHORATINI
TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY KOMPYUTER
DASTURLARIDAN FOYDALANISH**

A.Mahamatov, M. Xolbekov,

JDPI o'qituvchilari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarni zamonaviy kompyuterlar yordamida musiqaga bo'lgan qiziqishini shakllantirishni takomillantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, texnologiya, fan-texnika, kompyuter, xavaskorlik, talim, tarbiya, shakllantirish, takomillashtirish, to'garak, usul.

Bugun fan-texnika hamda texnologiyalar sohasida erishilgan yutuqlardan samarali foydalanish ta'lim tizimi va madaniyatini yuksaltirish ishlarini tinmay rivojlantira borishni talab etmoqda. Bu sohada XX-asrning eng katta yutuqlaridan biri hisoblangan kompyuterlar shubhasiz beqiyos katta rol o'ynamoqda.

Shunday ekan, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi yoshlarni bu sohadagi bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga egadir.

Har bir inson uchun musiqa juda zarur hisoblanadi. Bunday ta'lim umumiyligi o'rta ta'lim maktabidagi musiqa darsida, badiiy xavaskorlik to'garaklari va bolalar musiqa maktablarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun bu o'quv muassasalari musiqa ta'limi va tarbiyasini muntazam takomillashtirishi lozim.

Xalq ta'limi musiqani, texnikaning eng ilg'or marralariga olib chiqish, keng ko'lamda musiqa ta'limini joriy qilish bilan maktablarga yetuk musiqa o'qituvchilarini yetkazib berishi lozim. Bu musiqa-texnika tizimi talablarini bajarish uchun o'quvchilarni musiqa ta'limi mazmuni bilan tubdan tanishtirish, ularda nota bilan ishslash, eshitib o'z ovozida kuylash, so'zsiz ijroni sezsa bilishi kabi qobiliyatlarini shakllantirish kerak.

Ma'lumki, maktab o'quvchisiga beriladigan musiqiy ta'lim quyidagi jarayonni o'z ichiga oladi:

1. musiqa tinglash;
2. jamoaviy ijro;
3. musiqa savodxonligi;
4. raqs, musiqaga xos o'yinli harakatlar bajarish;
5. milliy cholg'u asboblari bilan tanishtirish.

Mazkur faoliyat negizida maktab shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqaga faol qiziqtirish, ularda musiqa taassurotlarini tarkib toptirish va zaruriy musiqiy tajribalarni hosil qilish asosiy vazifa qilib qo'yiladi.

Bunda o‘quvchilarda musiqiy didni shakllantirish, ularni musiqani san’at sifatida ahloqiy-estetik jihatdan ongli idrok etishga tayyorlash ko‘zda tutiladi. Bu vazifani amalga oshirish uchun maktablarda o‘qitiladigan “Musiqa madaniyati” darsida qo‘llaniladigan har bir musiqiy faoliyat turi uning ajralmas mantiqiy bo‘lagi bo‘lib, aniq maqsad sari yo‘naltirilishi lozim.

Umumtalim maktablaridagi boshlang‘ich sinf dasturida haftada bir soat musiqa darsini o‘qitish mo‘ljallangan. Shuni e’tiborga olib, biz musiqa ta’limining bir bo‘lagi bo‘lgan musiqa ijrosini o‘rgatish qismini darsda kompyuter yordamida tashkil etish maqsadida kompyuterli musiqa dasturini ishlab chiqib, uni musiqa ta’limi uchun joriy etdik. Bundan ko‘zlangan maqsad: kompyuterdan foydalanib o‘quvchilarning bilim saviyalarini oshirish, musiqa ta’limini texnik ta’lim bilan bir-biriga bog‘lashdir. Chunki, o‘quvchi kompyuterdan kuy o‘rganish jarayonida uning miyasi yaxshi dam oladi. Eshitish, fikrlash qobiliyatini o‘sib rivojlanib boradi. Eng muhim, kompyuterda musiqa o‘rganishga havas ortib, qiziqishi uyg‘onadi.

O‘quvchiga kompyuter yordamida musiqani o‘rgatish matematika, fizika, informatika kabi fanlarga bo‘lgan qiziqishini ham oshiradi. O‘quvchidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirib, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Har bir maktabdagi musiqa o‘qituvchisi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va yuqori sinf o‘quvchilari uchun alohida repertuar tanlab, ularning yoshiga mos keladigan, ona-tabiat, Vatan, yoshlik, tabiat manzaralarini sho‘h, quvnoq, og‘ir va o‘rta templarda ijro etiladigan musiqa asarlarini kompyuter yordamida o‘rgatilib borishi maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizni to‘liq asoslash uchun musiqa darslarini o‘qitishni takomillashtirish, jumladan, Muhammadjon Mirzaevning “Bahor valsi” musiqasini o‘rgatishda kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish haqida fikr yuritamiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda o‘qituvchi asosiy e’tiborni belgilangan harf va matematik raqamlardan foydalanishga qaratishi lozim. Chunki, kelgusida tinglanadigan kuy va qo‘shiqlar kompyuterda aniq va yaxshi eshitilishi aynan shundan boshlanadi.

Binobarin, bizning asosiy maqsadimiz ham musiqa ijrochiligidagi rang-barang ohanglarning qulay musiqa eshitish dasturini yaratishdan iborat. Shu nuqtai nazardan tinglanadigan musiqa namunasini kompyuter yordamida o‘quvchi yoshlarga yetkazish uchun quyidagi algoritm ishlab chiqildi:

- “Bahor valsi” musiqasidagi tovush cho‘zimlarini sonli algoritm bilan tasniflash;

-kuyda uchraydigan alteratsiya belgilarini aniqlash;

-har xil qushlarning ovozlarini nota yo‘lidagi tovush orqali ifodalash;

-kuyni eshitish orqali o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish;

-ifodalangan tovushlarni dastlabki olingan ma’lumot bilan taqqoslab tasnif qilish;

-musiqa tilida qochirim (farshlag)ni ham notalarning cho‘zimi, ya’ni qisqa 16 talik cho‘zim bilan raqamlar orqali ifodalash va jadval yordamida bajarishni tashkil etish;

-tryol, ya’ni (bidratma)ni ham shu usul yordamida bajarish;

-bedana sayrashini va bulbul sayrashlarini nota cho‘zimlarida tasnif qilish.

Ma’lumki, kuyni tabiiy ijro etish bilan kompyutering ish tafovuti o‘rtasida ozroq farq mavjud. Dinamikasi, ya’ni kuyning baland va past ovozlarda chalinadigan joyi, xatto kuy oxiridagi ijro ham yuqorida zikr etilgan usullarda bajariladi. O‘quvchi kompyuter yordamida kuylarni eshitish jarayonida avvalgi bastakorlarning kashfiyotlarini o‘zi uchun yangidan kashf etishi yoki yangicha bir kuy barpo etishi mumkin.

Ushbu jarayon, ya’ni kuyni kompyuterga dasturlash usuli rejalashtiruvchi kishini mustaqil va teran fikr yuritishga majbur etadi. Eng muhimi, bu ishga bo‘lgan havasni shakllantiradi.

Har bir musiqa o‘qituvchisi dars o‘tish jarayonida o‘zbek kompozitorlarining sho‘h, quvnoq, ifodali ijro etiladigan kuy va qo‘shiqlaridan birortasini bolalarga o‘zi kuylab berib, o‘tilgan dars asari bilan taqqoslab tushuntirishi lozim. Asarni ijro etganda va tinglaganda ularni mazmuniy ifodaliligi rivojlantirishda (qaytarish-takrorlash, variatsiyalash, keskin farq qiluvchanlik) his etishni kuchaytirish ishlarini olib borish va shakllantirish.

Intonatsiyani ifodali mazmunini, uni musiqiy “bayonida” tutgan asosiy o‘rnini haqidagi taassurotlarini shakllantirish.

Intonatsiya haqidagi taassurotlarni musiqiy fikrni bayon etish (tanish ashulaga bastalangan kuyni variatsiyalarni oddiy musiqiy asboblarda ijro etish misolida) haqidagi ong, tafakkurni shakllantirish.

Musiqiy obrazni, hayotiy ko‘rinishlarni musiqa vositalari orqali aks ettirishni (misol uchun xalq kuylaridagi – hajviyalar) shakllantirish.

Musiqiy asarlarni mazmun yuklamasi va tuzilishi haqidagi tassurotlarni shakllantirish:

- bir obrazni ko‘rsatuvchi (misol uchun “Paxtaoy” ashulasi), bir musiqiy fikrni bayon etuvchi bir qismli shakl;

- turli obrazlarni (to‘ldiruvchi va qarama qarshi turuvchi) taqqoslash vositasi ko‘rinishdagi oddiy ikki qisqli shakl; ikkinchi qismni mazmun jihatidan “ish nima bilan tugadi” savoliga javob berib, ustun turishi (masalan, B. Umidjonovning “Oqshomda” asari);

- oddiy uch qisqli shakl; oxirgi qismlarni mazmun jihatdan ustun turishi; birinchi qismdagi obrazni 3-qismda tasdiqlanishi (misol uchun L. Betxovenning “Quvnoq”, “G‘amgin” asarlari)

- band shakli bir qisqli yoki ikki qisqli musikiy tuzilishni ko‘p marta takrorlanishi; ashula repertuarini ifodali ijro etishda yoki o‘rganish jarayonida band shaklini o‘rganish; xor jamoalarni chiqishlari yozilgan tasmalarni tinglash;

- rondo, referenni mazmunan yuklanishi, rondoda keskin qarama qarshilik prinsipi; “Dilorom”, “Oshiq G‘arib va Shoxsanam” operalari misolida rondo shakllarini ifodaliliginini ochib berish;

- o‘zgaruvchanlik shakli; o‘zgaruvchanlik mavzuni o‘zgartiruvchi usul sifatida; ohang, talaffuz, janr xususiyatlarini o‘zgartirish (misol uchun “Yallama yorim” o‘zbek xalq bolalar ashulasi, “Oq terakmi ko‘k terak” uyin va boshqalar)

Bu usullar mavzularni yaxshiroq eshitishga yoki taqqoslashga asarni bosh g‘oyasini tushunishga va his qilishga yordam beradi.

Shu tariqa, yuqorida bayon etilgan musiqiy qobiliyatlarni shakllanish ketma-ketligi quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo‘la oladi:

-yuqorida bayon etilgan ketma-ketlik aniq bir mantiqiy aloqani shakllanishiga imkon yaratadi. Bu aloqa musiqa ijro etish majburiy bosqichlarini saqlab qolishga qaratilgan asosiy talablarni ta’minlab beradi.

-bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini ijodiy musiqiy qobiliyatlarini takomillashtiradi.

-musiqiy ijro paytida zamonaviy kompyuterlarni qo‘llash imkoniyatini beradi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini ijrochilik qobiliyatlarini maksimal darajada faollashtirish uchun, biz ko‘rib chiqilayotgan muammoni umumta’lim maktabga yo‘naltirilgan va u bilan aloqada bo‘lgan holda ko‘rib chiqishimiz lozim. Umumta’lim o‘rta maktablardagi musiqa darslari musiqani seuvvchi, fikrlovchi g‘oyalar chuqurligini his etuvchi, xalq, zamonaviy va klassik asarlarni eng yaxshi namunalardagi kechinmalar, his tuyg‘ularni sezuvchi tinglovchini tayyorlashga qaratilgan. Shuning uchun o‘quvchilarni musiqiy tarbiyasining asosiy vazifasi ularda musiqiy anglashni rivojlantirish hisoblanadi. Ba’zida, yuqori sinf o‘quvchilari ijrosidagi qo‘sinqi tinglashga tayyorgarlik ko‘rgan payti, asar haqida berilgan bir yoki ikki jumlali ma’lumotlar bilan bir qatorda, o‘quvchilarini e’tiborini musiqiy obrazni chuqur tushunishga yo‘naltirilgan usullarni qo‘llash mumkin. Misol uchun F. Nazarov musiqasiga bastalangan “Paxtaoy” qo‘srig‘i (2-sinf). Uni tinglashdan oldin o‘quvchilarga savollar yoki topshiriq berish foydali. Bunday misollar asarni butunlay uning xususiyatlari bilan, diqqat bilan tinglashga yordam beradi, o‘quvchilarda mustaqil faoliyat yuritishga qiziqish uyg‘otadi, kuy bastalashga va uni o‘rganib chiqishga undaydi.

Boshqa, yana bir bosqich-ashulani ko'rsatish. Uning vazifasi- tinglanayotgan asarga xos muhit yaratishdan iborat. Bolalarda musiqa tinglash jarayonida ularni tasavvurini, hissiy javob berish, talaffuzga etibor berish, obrazli fikrlash va aniq muloxaza yurita olishni tarbiyalash zarur. Ashula namoyishi - ma'suliyatli harakatdir. Bu yerdagi asosiy talab- o'quvchilar o'rganishi kerak bo'lgan asarni artistlarga xos, xis-tuyg'uga boy, so'zlarni ifodali ravishda namoyish etishdir. Ijro o'quvchilarda badiiy taassurot, asar variatlarini birini namoyish etish hohishi, ba'zi bir ijrolarga taqlid etish hoxishini paydo bo'lishiga yordam berishi zarur.

O'qituvchi ikki kuy yoki qo'shiq asarining bir-biridan qaysi jihatlari bilan farqlanishi, ya'ni uning tembri, ijroning baland va qattiqligi, mayusligi, dinamik ottenkalari (rang-barangligi) haqida savol-javob o'tkazib, o'quvchilarning musiqa bo'lgan havasini shakllantirishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, biz yosh avlodni kompyuter yordamida xalqimiz musiqa madaniyati, o'zbek bastakor va kompozitorlarning musiqa asarlari bilan tanishtirishimiz, bu asarlarni kompyuter yordamida o'rgatishimiz, o'quvchilarning estetik his-tuyg'ularini rivojlantirishimiz, musiqa ta'limining saviyasini oshirib, o'g'il-qizlarning eshitish, fikrlash qobiliyatlarini shakllantirib, musiqaga qiziqtirish uchun Muhammadjon Mirzaevning "Bahor valsi" musiqasini kompyuterlar yordamida tinglash o'quvchilarning eshitish va fikrlash qobiliyatlarini o'stirish bilan ularda did va nafosatni tarbiyalaydi. Musiqani o'rganishga bo'lgan havasini, mexr - muruvvatini tarkib toptirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: «Ma'naviyat», 2008. - 176 b.
2. Yarseva S.Ye. Didakticheskoe modelirovanie samostoyatelnoy raboti studentov: Diss. kand.ped.nauk. - T.: TGPI im.Nizami, 1991.-S.221.
3. Yuzlikaev F.R. Teoreticheskie osnovn intensifikatsii nachalnoy professionalnoy adaptatsii molodix uchiteley.-T.,1993.-S106.
4. G'oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. - T.: «O'qituvchi», 1997.-104 6.